

ELEKTRON O‘QUV ADABIYOTLARI ISHLAB CHIQISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

Xusanboyeva Tursunoy Maxammadqasimjanovna

Andijon mashinasozlik instituti, “Axborot texnologiyalari”

kafedrasida stajor-o‘qituvchisi,

Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va

tizimlari mutaxassisligi 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Yangi axborot kommunikatsiyalar texnologiyalaridan to‘laqonli foydalanish asosida mutaxassislarni tayyorlash ta‘lim sohasida kompyuter texnikasi va axborot tarmoqlarini ishlatishni ko‘zda tutadi. O‘quv jarayoni pedagogik hamda zamonaviy kompyuter texnologiyalari uyg‘unligi yordamida amalga oshirilishi kerak.

Kalit so‘zlar: Elektron darslik, HTML, DOC, Web brauzer.

Respublikamizda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida» gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta‘lim tizimidagi o‘quv muassasalari, pedagoglar oldiga bir qancha muhim vazifalarni qo‘ydi.

Zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini ta‘limning barcha sohalariga tadbiq etish, xalqaro axborot tizimlariga, shu jumladan, «Internet» ga kirib borishni kengaytirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Ta‘lim tizimini takomillashtirish xalqaro, milliy hamda hududiy bosqichlarda axborot almashish tizimi imkoniyatlarini kengaytirish, pedagoglar malakasini oshirish hisobiga tayyorlanayotgan mutaxassislarga zamon talablariga javob beradigan darajada bilim berish mumkin.

Yangi axborot kommunikatsiyalar texnologiyalaridan to‘laqonli foydalanish asosida mutaxassislarni tayyorlash ta‘lim sohasida kompyuter texnikasi va axborot tarmoqlarini ishlatishni ko‘zda tutadi. O‘quv jarayoni pedagogik hamda zamonaviy kompyuter texnologiyalari uyg‘unligi yordamida amalga oshirilishi kerak.

Bu g‘oyalarni tadbiq‘ini ta‘lim muassasalarida qo‘llash uchun o‘qitiladigan fanlardan elektron o‘quv adabiyotlari yaratish natijasida ko‘rishimiz mumkin. Bo‘lg‘usi mutaxassis o‘z sohasi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakaga ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan axborot - kommunikatsiya texnologiyalari orqali ega

bo'ladi. «Axborot texnologiyalari va masofadan o'qitish» bo'limi kompyuterlaridan foydalanilgan holda universitet kutubxonasiga olib kelingan va ishlab chiqilgan elektron o'quv adabiyotlari orqali talaba qiziqqan fanlardan o'ziga kerakli bilimlarni olishi mumkin. Hozirgi fan texnika taraqqiyoti davrida dunyo global tarmog'i bo'lgan internet nafaqat oliy ta'lim muassasalarida balki, ishlab chiqarish korxonalarida ham foydalanilayotgani ma'lum. Buning natijasida sirtqi bo'lim talabalari ishlayotgan ish joyi, ish stolida o'tirib bevosita ishdan ajralmagani holda universitet portaliga joylashtirilgan, o'quv rejasida ko'rsatilgan fanlar bo'yicha bilimlar olishi, joriy, oraliq va yakuniy nazorat savollariga to'plamiga ega bo'lishlari mumkin. Buning uchun universitetga yangi portal tashkil qilinishi va elektron o'quv adabiyotlarini shu portalga yig'ish kerak bo'ladi. Bu esa ortiqcha sarf harajatlarni kamaytiradi.

Hozirgi kunda yaratilayotgan elektron darsliklarning sifatini yaxshilash maqsadila quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- dastlab o'rganuvchining psixologik xususiyatidan kelib chiqqan holda o'quv materialini (shakli va mazmuni bo'yicha) ko'rsatishning turli variantlari ishlab chiqiladi;

- o'quv materialining elektron varianti Word matnli muharririda va undan yuqori versiyali redaktorlarda tuzish kerak. Chunki rasmlar va formulalarni yozishda qulay vositalardan foydalanish mumkin;

- materialni qism, bo'lim hamda paragraflarga ajratish hamda har bir minimal mantiqiy qism alohida fayl sifatida yozilgan bo'lishi kerak. Hamma yaratilgan fayllarni bir nechta ichki katalogi bo'lgan bitta katalogda saqlash tavsiya etiladi. Materialni qismlarga bo'lishda har bir faylning hajmi shunday tanlanishi lozimki, bu fayl web brauser orqali ishga tushirilganda uning hajmi 3-4 ekranli bo'lishi kerak. Bu 2-3 betli 12 shriftida terilgan DOC faylli matnga mos keladi.

- sahifada o'quvchining diqqatini chalg'ituvchi keraksiz (matn yoki grafik shaklidagi) axborot bo'lmasligi, ekran foni monotonli bo'lishi, lekin oq bo'lishi shart emas. Oqish rangdagi fonlarni ishlatish mumkin. Bunda harflarning rangi qora yoki qora ko'kimtir ranglarda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Qora rangli fon va oqish rangli shriftni ishlatish tavsiya etilmaydi, chunki bunday ekran o'quvchining ko'zini tezda charchatadi;

- tasvirlarning zichlashgan grafik formatlarini, masalan GIF, GPJ kabilar ishlatilsa o'quv dasturining umumiy hajmi ancha kamayadi;

- videofragmentlarni yaratishda kompyuter videomontaji bo'yicha dasturiy texnikaviy vositalar ishlatiladi. Bunda montajda kerak bo'ladigan tasvir va ovozlarni to'plamini oldindan tayyorlab olish kerak;

- materialni qabul qilishda faol ta'sir etuvchi elementlaridan biri bu ovozdur. Ovoz bilan ishlashda uni chiqarish, yozish hamda sintez qilish imkoniyati bor turli dasturiy ta'minotlar ishlatiladi;

- elektron darsliklar orasida hamda internetning kerakli zaxiralari orasidagi aloqalarni o'rnatish uchun gipermatnli yo'nalishlar yaratish zarur. Bu juda oddiy amal bo'lib, Word redaktorining «vstavka», gipersilka menyusining «dobavleniya gipersilka...» instrumental panelida amalga oshiriladi.

- Gipermatnni qo'shish uchun dastavval kerakli so'z, ibora va boshqa ob'yektlarni ajratib olinadi. Aloqa o'rnatilayotgan fayl yaratilgan katalogda bo'lishi shart;

- Yaratilgan matnni HTML formatiga o'tkazish uchun "fayl" menyusidagi "сохранить как..." rejimida fayl tipini "HTML document" nomini o'rnatib, saqlash kerak. Bu amal natijasida "html" fayli hosil bo'ladi. Natijada matnning ichida yozilgan formulalar avtomatik ravishda jpg formatli fayl rejimiga aylantiriladi.

Umuman olganda elektron darslik ma'lum fan bo'yicha to'la o'quv materialini qamrab olishi kerak. Bunda ma'lumotlar tez izlab topiladi, o'qish uchun qulay bo'ladi. Elektron darslikda ma'lumotlar tugallangan fragment shaklida bo'lishi, oddiy darslikda o'zlashtirishi qiyin bo'lgan holatlar videoelementlar orqali ifodalanilishi lozim.

Mukammal qilib yaratilgan elektron darsliklar masofadan turib o'qitishda muhim vosita hisoblanadi. Zero, kelajakda masofadan o'qitish ta'lim tizimidagi eng asosiy yangi pedagogik texnologiyalardan biri bo'lib qoladi.

Elektron o'quv adabiyotlarini yaratishda quyidagi tamoyillarga rioya qilinsa, uning sifati yanada oshishi mumkin:

- o'quv materialini uning mavzu-moxiyatiga monand ravishda alohida bo'laklarga (modullarga) bo'lib chiqish, ushbu bo'laklarning ma'lum miqdordagi ketma-ketligi fanni to'liq o'zlashtirishga olib kelishi lozim;

- har bir modulda yangi tushunchalarning mohiyatiga yetish, ularni tushunish, esda saqlab qolish va mulohaza qilishga imkon beradigan qismlarga ega bo'lishi kerak. Inson miyasiga ijobiy psixologik ta'sir ko'rsata oladigan usullarni qo'llash ham ushbu tamoyilga mansub bo'lishi mumkin;

- har bir alohida ajratib olingan modul boshqa modular bilan gipermatn ko'rsatkichlari orqali bog'langan bo'lishi o'quvchiga bir moduldan boshqasiga (va yana orqaga yoki oldinga) osonlik bilan o'tishini ta'minlab bera oladi va bu mustaqil foydalanuvchi yoki sirtqi talaba uchun o'quv materialidan foydalanishni ancha yengillashtiradi;

- har bir o'quv materiali yoki modul talaba yoki o'qituvchi tomonidan boshqarilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ya'ni o'quvchi o'zini-o'zi tekshirish

mustaqil ishlash, masalalarini murakkabligini oshirish yoki kamaytirish kabi imkoniyatlarga, o'qituvchi esa tekshirish topshiriqlarning murakkablik darajasini o'zgartirish, savol berish va javobni tekshirish kabi imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim;

- o'rganilayotgan mavzuning har bir bo'lagi yoki moduli mantiqiy jihatdan to'liq bo'lishi lozim, ya'ni u nazariy qismdan uni o'zlashtirish bilan bog'liq nazorat savollardan, hayotiy misollardan, mustaqil ishlash uchun topshiriqlardan, modul bo'yicha savollar va ularga bo'lgan aniq javoblardan, nazorat ishidan, yordam olish va tushuntirish tizimlaridan iborat bo'lishi kerak;

- elektron darslik undan foydalanuvchining talablariga moslasha olish imkoniyatiga ega bulishi kerak. Ya'ni, u mavzuni yoki fanni qay darajada o'rganishi kerakligidan kelib chiqqan holda elektron adabiyotning xilma-xil imkoniyatlaridan osonlik bilan foydalana olishi lozim;

- o'quvchi doimo kompyuterning mantiqiy va hisoblash imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bu esa mavzu bilan bog'lik bo'lgan dasturiy ta'minotni ham elektron o'quv adabiyoti bilan birgalikda aktivlashtirish masalasini hal qilishni taqozo qiladi;

- bir sohaga mansub bo'lgan (yoki bo'lmagan) elektron darsliklar (yoki ularning tarkibiy qismlari) o'zaro birlashtirish, qismlarga bo'lish, yangi mavzu yoki ma'lumotlar qo'shish, ma'lumotlar olish yoki yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish kabi sifatlarga ega bo'lishlari kerak. Bu esa ularni zamon talablariga bog'liq ravishda tezlik bilan o'zgartira olish imkonini yaratadi.

Yuqoridagi tamoyillarga rioya qilgan ravishda elektron o'quv adabiyotlarini yaratish, ularning samaradorligini oshirish imkonini beradi va ulardan foydalanuvchilarning safi yana ham ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.M.Abduvaxidov, S.A.Novosardova. Sovremenniye informatsionniye texnologiyе v ekonomike. - Toshkent. 2001y. 90 bet

2. Masofadan o'qitish Texnika va Texnologiyasi. Xalqaro Ilmiy - Amaliy Konferentsiya. Ma'ruzalar to'plami. Toshkent,2002.
126,128,129,130,139 - betlar.

3. Axborot Kommunikatsion Texnologiyalari asosida elektron o'quv adabiyotlarini yaratish: tajriba, muammo va istiqbollar. Mavzuyidagi Respublika Ilmiy — Amaliy Anjumanining Ma'ruzalar to'plami Toshkent.2004. 27,51,52.63,54,61. betlar

4. V.G.Potemkin. Sistema injenernix i nauchnix raschetov Matlab 5.x: —Tom 1,2. Moskva: «Dialogmifi», 1999. 366,304 bet.

5. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3 (10), 126–128.

6. Mukhammad, K. K., & ogli Melikuziev, A. L. (2022, December). THE ESSENCE OF NONVERBAL COMMUNICATION. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 19, pp. 91-93).

7. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.